

# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

## Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2/S-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ S/2 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## **07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Полвонов Козимбек*

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ШАҲАРЛАРИ ТОПОНИМИГА ОИД  
МАЪЛУМОТЛАР ..... 10-15

*Hadjamuratova Matlyuba*

МАКТАВГАСНА ТА’ЛИМДА БОЛАЛАРНИ ИЈТИМОЙ НИМОYA QILISHGA INNOVATSION  
YONDOSHUVNING DOLZARBLIGI ..... 16-21

*Шовкатов Шокир Шовкат ўғли*

АБУЛ-ЮСР ПАЗДАВИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР ..... 22-31

*Mo‘minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o‘g‘li*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD QONUNCHILIGIGA KIRITILGAN O‘ZGARISHLAR VA  
ULARNING ANAMIYATI ..... 32-36

*Пардаев Асрор*

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ АҲОЛИСИНИ ХАЛҚ ИСТЕЪМОЛИ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ  
МАҲСУЛОТЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ ..... 37-42

## **08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Умурзақова Мўътабархон Нодир қизи*

ЖАХОНДА ТИББИЙ СУҒУРТА ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 43-52

*Рахманов Зафар*

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ДЕПОЗИТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ  
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИ БАҲОЛАШ ..... 53-62

*Аминов Фазлитдин Бахадирович*

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ..... 63-70

*Курбонова Шахринос Авазхоновна*

ИҚТИСОДИЁТНИ ДИВЕРСИФИКАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА АСОСИЙ ВОСИТАЛАР  
ТАҲЛИЛИНИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ ..... 71-81

*Azimova Hulkar Egamberdiyevna*

KREDIT PORTFELINI SAMARALI BOSHQARISHDA TIJORAT BANKLARINING O‘RNI ..... 82-87

*Rajabov Orzujon Mamasoliyevich*

LOGISTIKA XIZMATLARINI KO‘RSATISHDA BUYUMLAR INTERNETI (INTERNET OF  
THINGS)DAN FOYDALANISH ..... 88-93

*Саидов Сарвар Хайруллоевич*

ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИЛАРИДА БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ  
БОРАСИДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ ..... 94-104

*Сержанов Аймурат Медетбаевич*

ХАЛҚАРО АМАЛИЁТ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ БАНКЛАР ХИЗМАТЛАРИНИ ЯРАТИШ  
ЗАРУРИЯТИ ..... 105-111

*Туробов Шерзод Алишеревич, Ибодуллаев Зафар Ибодуллаевич*

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ХОРИЖ  
ТАЖРИБАСИ ..... 112-119

*Daniyarova Feruza Baxriddinovna, Chinorova Shahodat Mansur qizi*

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA HORIJIIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH  
YO‘LLARI ..... 120-126

*Temirova Feruza Sagdullayevna*  
XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA BRENDGA SODIQLIK ..... 127-132

*Sharipova Shaxzoda Xasanovna*  
YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI ..... 133-138

### **09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Алимова Шахноза Хамидовна*  
НОГИРОНЛИГИ БОР ЁШЛАР - АЛОҲИДА ХУСУСИЯТГА ЭГА ИЖТИМОЙ-ДЕМОГРАФИК  
ГУРУҲ СИФАТИДА ..... 139-147

*Асракулова Адиба Набиевна*  
“ЁШЛАР ВА БИЗНЕСНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ЙИЛИ” НИНГ ҚАБУЛ ҚИЛИНИШИ  
ТАДБИРКОРЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ  
АҲАМИЯТИ ..... 148-154

### **10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Teshabayeva Dilfuza Muminovna*  
LEXICAL PROBLEMS OF TRANSLATING THE NAMES OF NEW PHENOMENA IN MASS  
MEDIA ..... 155-160

*Rustamov Ilhom Tursunovich, Inog'omjonova Robiya Rustamjon qizi*  
INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA AKS ETISHI XUSUSIDA OLIMLARNING  
TADQIQOTLARI VA QARASHLARI ..... 161-165

*Abdikhmidova Sevinch Obidjon kizi*  
PROBLEMS FACED IN TRANSLATING PROPER NOUNS ..... 166-170

*Djurakulova Elmira Suyunova*  
SHOYIM BO'TAYEV ROMANLARIDA BADIY XRONOTOP VA MIFOLOGIK TALQIN ..... 171-177

*Dalieva Madina Khabibullaevna*  
THE ROLE OF BLENDING THEORY IN POLYSEMY AND METAPHOR ..... 178-183

*Жўраева Ирода Ахмедовна*  
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК АНТРОПОНИМИК ЛУФАТЛАР ТИПОЛОГИЯСИ ..... 184-189

*Iminova Shahnoza-Begim Bahodirovna*  
INGLIZ TILIDA INSONNING IJOBIY AQLIY XUSUSIYATLARINING IFODALOVCHI  
BIRLIKLARINING KONSEPTUAL, LINGVO-MADANIY XUSUSIYATLARI ..... 190-193

*Irgasheva Shoxida Sadriddinovna*  
INTERNET DISKURSIDAGI IQTISODIY NEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISH  
XUSUSIYATLARI ..... 194-200

*Tursunova Zarina Farxodovna*  
LINGVISTIKADA EMOTLARNI O'RGANISHGA ZAMONAVIY YUNDASHULAR (INGLIZ TILI  
ASOSIDA)..... 201-205

*Satibaldiyev Erkinjon Kamilovich*  
PARADIGMATIC SOUND INTERFERENCE IN THE ENGLISH SPEECH OF  
TURKOPHONES ..... 206-212

*Radjabova Hafiza Shukrulloevna*  
INGLIZ VA O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI ..... 213-220

*Avezova Dilovar Salimovna*  
TAXALLUSLARNI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATI ..... 221-225

|   |         |
|---|---------|
| <i>Alikberova Kamila Adhamovna</i><br>A CRITICAL ANALYSIS OF LANGUAGE USE AND LANGUAGE ACQUISITION .....  | 226-232 |
| <i>Rakhmatova Bahara Ibodulla qizi</i><br>THE ROLE OF LEGAL DISCOURSE IN MODERN LINGUISTICS .....   | 233-238 |
| <i>Valieva Nargizakhon Zamir kizi</i><br>COMPARATIVE ANALYSIS OF “KITE RUNNER” AND “A THOUSAND SPLENDID SUNS” BY<br>KHALED HOSSEINI: THEMES, CHARACTERS, AND SOCIOPOLITICAL CONTEXT ..... | 239-244 |
| <i>Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna</i><br>RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI KASB-HUNAR LEKSIKASINING STUKTURAL<br>TASNIFI .....  | 245-251 |
| <i>Alimova Kamola Tursunovna</i><br>CHALLENGES IN PREPARATION OF GUIDE TRANSLATORS .....  | 252-258 |
| <i>Сейтумбетова Айкумар Пулатбаевна</i><br>ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В<br>АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ.....                             | 259-264 |
| <i>Бегжанова Айсилу Махмудовна</i><br>ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА КОМПЬУТЕР ЛИНГВИСТИКАСИ ТЕРМИНЛАР<br>ТИЗИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....  | 265-270 |
| <i>Kubanova Ilmira Sharifovna</i><br>EXPLORING ABBREVIATED RAILWAY TERMINOLOGY IN ENGLISH: A COMPREHENSIVE<br>ANALYSIS .....  | 271-275 |
| <i>Azamjonova Sarvinoz</i><br>USE OF TOPONYMS IN MODERN FRENCH MEDIA .....  | 276-282 |
| <b>12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР</b>   |         |
| <i>Muxiddinova Dildora Muxiddinovna</i><br>O‘ZBEKISTONNING BOJXONA FAOLIYATIGA KIOTO KONVENSIYASINI JORIY ETISHNING<br>HUQUQIY JIHLTLARI VA JSTGA A‘ZOLIKNING TA‘SIRI .....               | 283-292 |
| <i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o‘g‘li</i><br>SOLIQ NAZORATI HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH DAVLAT MOLIVAVIY<br>NAZORATI INSTITUTINING MUHIM OMILI .....                              | 293-298 |
| <i>Mustanov Ixom Abdivalijonovich</i><br>BANK QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY<br>JIHLTLARI .....   | 299-304 |
| <i>G‘oyibov Jo‘rabek Choriyevich</i><br>YOSHLAR MIGRATSIYASI: MUAMMO VA YUTUQLAR TAHLILI .....  | 305-309 |
| <b>13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>  |         |
| <i>Kuziyev Otabek Chuliyevich</i><br>TALABALARDA AXBOROT MODELLASHTIRISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING<br>MUHIM UCH BOSQICHI .....  | 310-314 |
| <i>Fattaxova Diloram</i><br>TIL O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN KOMPYUTER METODLARI .....   | 315-321 |
| <i>Moydinova Elmira</i><br>APPLICATION OF FLIPPED LEARNING METHODS IN THE UNIVERSITY  |         |



|   |         |
|---|---------|
| CLASSROOM .....   | 322-326 |
| <i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i>  |         |
| ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 4K MODEL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA INTEGRATIV YONDASHUVNING MOHIYATI .....                    | 327-333 |
| <i>Doniyorova Gulrux Shoniyozovna</i>   |         |
| AVTOMOBILSOZLIK YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI .....               | 334-338 |
| <i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i>   |         |
| RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMINING ASOSIY NAZARIYALARIDA TA'LIM OLUVCHINING ANALITIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....             | 339-344 |
| <i>Xo'jamberdiyeva Dilfuza Ikramovna</i>  |         |
| DARSLIK BILAN ISHLASH O'QUVCHILARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA .....                                    | 345-351 |
| <i>Mamaraimov Bekzod Qodirovich</i>   |         |
| O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING QIDIRUV FAOLIYATIGA TAYYORLIGI .....                           | 352-356 |
| <i>Xudayberdiev Nurislam Nuralievich</i>  |         |
| BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIIY-PEDAGOGIK MEXANIZMI .....                             | 357-363 |
| <i>Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich</i>   |         |
| TALABALARINING O'QUV FAOLIYATI VA ILMIY IZLANISHLARIDA SUN'IY INTELLEKT: IMKONIYAT VA CHEGARALAR .....                                  | 364-369 |
| <i>Teshaboyeva Shahodat</i>   |         |
| ZAMONAVIY SHAROITDA SHAXSNING KASBIY HUQUQIY MADANIYATI .....   | 370-375 |
| <i>To'rayeva Dilnoza Ismoilovna</i>   |         |
| RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIY TAYYORGARLIKNING BIR QISMI SIFATIDA ..... | 376-380 |
| <i>Beknayeva Shaxnoza Vladimirovna</i>  |         |
| MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION JARAYONLAR .....   | 381-388 |
| <i>Dusyarov Salimjon Xudaymurotovich</i>  |         |
| HARAKATLI O'YINLAR ASOSIDA MAKTAB O'QUVCHILARIDA JISMONIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH .....  | 389-393 |

**Rajabov Orzujon Mamasoliyevich**  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchi

### **LOGISTIKA XIZMATLARINI KO'RSATISHDA BUYUMLAR INTERNETI (INTERNET OF THINGS)DAN FOYDALANISH**

**Annotatsiya.** Maqolada logistika xizmatlarini ko'rsatishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, logistika sohasida raqamli texnologiyalarga e'tiborni kuchayishi, raqamli texnologiyalardan buyumlar Internetining logistika xizmatlari ko'rsatishda qo'llanilishi, logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda buyumlar Internetidan foydalanishning asosiy yo'nalishlari, logistika sohasida buyumlar Internetidan foydalanishning afzalliklari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiyalar, raqamli logistika, raqamli platformalar, buyumlar Interneti, bulutli texnologiyalar, blokcheyn, Big Data, ombor logistikasi.

---

**Rajabov Orzujon Mamasoliyevich**  
An independent researcher at  
the Samarkand Institute of Economics and Service

### **USE OF THE INTERNET OF THINGS IN THE PROVISION OF LOGISTICS SERVICES**

**Abstract.** The article describes the importance of using digital technologies in the provision of logistics services, increasing attention to digital technologies in the field of logistics, the application of digital technologies to the Internet of Things in the provision of logistics services, the main directions of using the Internet of Things to increase the efficiency of logistics services, the advantages of using the Internet of Things in the field of logistics.

**Key words:** digital technologies, digital logistics, digital platforms, Internet of Things, cloud technologies, blockchain, Big Data, warehouse logistics.

---

**Раджабов Орзуджон Мамасолиевич**  
независимый научный сотрудник  
Самаркандского института экономики и сервиса

### **ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРНЕТА ВЕЩЕЙ ПРИ ОКАЗАНИИ ЛОГИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ**

**Аннотация.** В статье описывается важность использования цифровых технологий при оказании логистических услуг, повышение внимания к цифровым технологиям в сфере логистики, применение цифровых технологий Интернета вещей при оказании логистических услуг, основные направления использования Интернета вещей для повышения эффективности логистических услуг, преимущества использования Интернета вещей в сфере логистики.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, цифровая логистика, цифровые платформы, Интернет вещей, облачные технологии, блокчейн, большие данные, складская логистика.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI2Y2024N11>

**Kirish.** Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish va uni qo'llab-quvvatlash, raqamli sektorini rivojlantirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatda yangi elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to'lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda, elektron infratuzilma va tijorat shakllantirilmoqda, iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqamli transformatsiyaga o'tilishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Yangi raqamli texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish hamda ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish vazifasi jadal sur'atlar bilan bajarilmoqda.

Bu borada bir qator strategiya va dasturlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasining 57-maqсадiga ko'ra, "Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy "IT-HUB"ga aylantirish" belgilangan. 2030 yilgacha mazkur maqsad doirasida barcha aholi punktlarini internet bilan to'liq qamrab olish va uning tezligini **10 barobar** oshirish, xalqaro internetga ulanish tezligini **5000 Gbit/s.ga** yetkazish, optik tolali aloqa liniyalari va keng polosali ma'lumot uzatish tarmoqlarining qamrovini **100 foizga** yetkazish, IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini **5 milliard** dollarga, IT-park rezidentlari sonini **10 barobar** oshirish, ular tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini **2,2 foizga** yetkazish va ularda yaratilgan ish o'rinlari sonini **100 mingga**, IT-parkda xorijiy kompaniyalar uchun «Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi»ni tashkil qilish orqali xorijiy kompaniyalar vakolatxonalari sonini **1000 taga** yetkazish, startup loyihalarni IT-parkning akseleratsiya (rivojlantirish) dasturi orqali qo'llab-quvvatlash yo'li bilan milliy bozor kapitallashuvini **1 milliard dollarga** teng birinchi (Unicorn) startup loyihasini chiqarish, xalqaro ahamiyatga ega **avtomagistral yo'llarni to'liq mobil internet** bilan ta'minlashga erishish nazarda tutilgan.

Shulardan kelib chiqqan holda, mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadigan logistika xizmatlari hajmini raqamli texnologiyalar asosida oshirish muhim ahamiyatga ega. Logistikada buyumlar Internetining (Internet of Things, qisqartirilgan IoT) qo'llanilishi, mazkur raqamli texnologiyaning logistika sohasida qo'llash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Hozirgi vaqtda zamonaviy tadqiqotlarning dolzarb mavzularidan biri milliy iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlarini raqamli transformatsiya qilishdir. Raqamlashtirish iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarini, jumladan, logistika xizmatlari va uning infratuzilmasini ham qamrab olmoqda.

Logistika 4.0 yoki raqamli logistika xarajatlarni kamaytirishga, logistika xizmatlarini ko'rsatishning tezligini, moslashuvchanligini va samaradorligini oshirishga imkon beradi. Shu bilan alohida korxonalar va umuman mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga hissa qo'shadi [5, 474-478].

Bugungi kunda global raqamlashtirish ta'sirida logistika xizmatlari bozorining hajmi oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Logistika xizmatlari sifatiga yangi talablar qo'yilmoqda va ta'minot zanjirini boshqarishga yangi yondashuvlar paydo bo'lmoqda. Bunda nafaqat xarajatlarni minimallashtirishga, balki, birinchi navbatda, maksimal iqtisodiy samara, qiymat va foyda olishga e'tibor qaratilmoqda. Bunga raqamli platformalar, jarayonlarni robotlashtirish, buyumlar Interneti, bulutli texnologiyalar, blokcheyn, Big Data texnologiyasidan foydalanish logistika ta'minot zanjirining barcha ishtirokchilari faoliyatini integratsiya qilish va muvofiqlashtirishga yordam beradi [6, 68-76].

Ombor logistikasida rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri 3D-bosmadan foydalanish bo'lib, bu tovarlarning virtual modellari saqlanadigan raqamli omborlarni yaratishga imkon beradi. Bunday omborda buyurtmalar bevosita ishlab chiqaruvchi tomonidan bajariladi va iste'molchining uyiga etkazib beriladi. Ushbu texnologiyani joriy etish ishlab chiqarish jarayonini jadallashtirish, ombor va transport xarajatlarini kamaytirish hisobiga ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini kamaytirishda namoyon bo'ladigan iqtisodiy samaraga erishish imkonini beradi. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchining iste'molchiga yaqinligi tufayli asosiy ifloslanish manbalari bo'lgan avtomobil va havo transportida tashishni qisqartirish hisobiga ekologik samara olish mumkin bo'ladi. Eng yirik yangi sektor 3D bosma xomashyoni saqlash va tashish bo'ladi [9, 211–215].

Raqamli logistikaning istiqbolli yo'nalishi bu buyumlar Internet texnologiyalaridan, jumladan robotlar va dronlardan foydalanishdir. Shunday qilib, Amazon o'z omboridagi tovarlarni tanlash va qadoqlash uchun sanoat robotlaridan foydalanadi. Walmart logistika markazlari inventarizatsiya jarayonini tezlashtiradigan sekundiga 30 kadr tezlikka ega dronlardan foydalanishni rejalashtirmoqda [8, 94-102].

**Muhokama.** Buyumlar Interneti uskunalari yordamida ichki obyektlarni kuzatish va logistika operatsiyalarni amalga oshirish mumkin. Kuzatuv ko'plab muammolarni hal qilishga yordam beradi. Jumladan:

1. Kengaytirilgan tahlillarni olish. Buyumlar Interneti logistika jarayonlarini boshqarishga yaxlit yondashuvni ta'minlaydi. Uning yordami bilan omborlardagi mahsulot hajmini nazorat qilish, tovarlarni saqlash shartlarini (harorat, namlik darajasi va boshqalar) aniqlash, asbob-uskunalar va xodimlarning unumdorligi va mavjudligini baholash mumkin.

2. Xodimlarning xavfsizligini ta'minlash. Obyektlarni kuzatish sensorlari logistika korxonalarini ishini xodimlar uchun xavfsizroq qilishlari mumkin. Ularning yordami bilan turli pandemiya davrida ijtimoiy masofani ta'minlash, xodimlarning jismoniy holatini kuzatish va ularni agressiv moddalar ta'siridan himoya qilish mumkin. Tizim haydovchilarni xavfsizlik choralari bilan rioya qilish haqida ogohlantirish, ish paytida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni baholash va xodimlarni boshqarish bilan bog'liq muammolarni aniqlashga yordam beradi.

3. Tovar zaxirasining monitoringi. Omborlardagi mahsulotlar zaxirasi hajmini nazorat qilish, zaxira hajmining o'zgarishini, zaxira me'yorini aniqlash kabilarni bajaradi.

Monitoring va navigatsiya tizimlaridan foydalanish tufayli butun ombor yoki logistika markazi hududida samarali transport yo'nalishlarini tuzish mumkin. Ushbu yondashuv menejerlarga transport vositalarining ishlashi ustidan nazoratni yaxshilashga va inson omillarining operatsiyalarga ta'sirini minimallashtirishga yordam beradi. Tizimlar xodimlar va aktivlarning xavfsizligini yaxshilaydi. Yopiq marshrutlarni aniq rejalashtirish to'qnashuvlarning oldini olishga va baxtsiz hodisalar bilan bog'liq bo'lgan tovarlarga mumkin bo'lgan zararni oldini olishga yordam beradi.

Buyumlar Interneti orqali optimal marshrutlarni tuzishda bir qator afzalliklarga ega bo'lish mumkin:

- aktivlarni kuzatishning aniqligini oshirish;
- irratsional trafik tufayli vaqtni behuda sarflashni bartaraf etish;
- transport harakati ustidan nazoratni avtomatlashtirish;
- transport vositalari va maxsus texnikani boshqarish samaradorligini oshirish;

mijozlar oldidagi majburiyatlarning qat'iy bajarilishini ta'minlash.


Integratsiyalashgan buyumlar Interneti logistika yechimlari aktivlar ustidan yanada samarali nazoratni ta'minlaydi. Ularning yordami bilan omborga kim kirganini, qanday tovarlar tashlanganini yoki saqlanganligini kuzatish mumkin.

Logistika korxonasi infratuzilmasiga "Buyumlar Interneti"ni joriy qilishda omborlar va boshqa binolarda obyektlarning joylashishini aniqlashga va real vaqt rejimida harakatlarini kuzatishga yordam beradigan maxsus sensorlar o'rnatiladi. Barcha ma'lumotlar raqamli kartada ko'rsatiladi, u smartfon yoki shaxsiy kompyuter ekranida ko'rsatiladi.

Buyumlar Internetidan foydalanishning muvaffaqiyatli misollaridan biri Amerikaning RogueAle kompaniyasi tomonidan tez buziladigan mahsulotlarni tashishni kuzatish imkonini beruvchi yetkazib berish zanjirini kuzatish vositalarini joriy etishidir. Harorat va namlik to'g'risida ma'lumot to'playdigan va uni xodimlarga uzatadigan maxsus sensorlar xom ashyoni yangi va keyingi foydalanish uchun mos ravishda etkazib berishga yordam beradi.

Yana bir misol transport xavfsizligini oshirishga qaratilgan. Union Pacific temir yo'l kompaniyasi IoT texnologiyasidan asbob-uskunalar ishdan chiqishining oldini olish va poezdning relsdan chiqib ketish xavfini kamaytirish uchun foydalanmoqda. Voqealarning oldini olish g'ildiraklarning holatini kuzatuvchi yo'llarga datchiklarni joylashtirish tufayli mumkin bo'ldi. Bu holatda texnologiyani joriy etish kompaniyani yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har bir voqea uchun 40 million dollarga yaqin yo'qotishlarni tejashga yordam berdi.

**Natija.** Logistika xizmatlarini ko'rsatishda qo'llaniladigan muhim raqamli texnologiyalardan biri – bu buyumlar Interneti (IoT) hisoblanadi. Ushbu texnologiya ma'lumotlarni uzatish uchun turli xil qurilmalar va obyektlarni Internet orqali bog'laydigan tarmoqdir. Ta'minot zanjirini boshqarish va logistika xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi buyumlar Interneti tovarlarni tashish xarajatlarini, shuningdek, tranzitda to'xtab qolish vaqtlarini kamaytiradi va tashish xizmatlarining yanada shaffoqligini ta'minlaydi. Dunyo bo'ylab turli sohalardagi ko'plab kompaniyalar allaqachon ushbu texnologiyani joriy qilishgan. Buyumlar Interneti bozori hajmi 2017 yilda 171 milliard dollar bo'lgan bo'lsa, 2022 yilda 557 milliard dollarni tashkil qilgan. Buyumlar Internetining o'sish sur'ati yiliga taxminan 27% ni tashkil qilmoqda.



### 1-rasm. Buyumlar Internetining o'sishi[11]

Logistika xizmatlarini ko'rsatishda IoT texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin:

real vaqt rejimida yuklarni ortish, tushirish, qadoqlash, yuk birligini shakllantirish, yuklarni jo'natish, qabul qilib olish kabi jarayonlarni kuzatish imkoniyati;

logistika xizmatlari samaradorligini oshirish uchun xodimlar va transport vositalarining ishlashini aniqlash;

buyurtmalarni qabul qilish, omborlashtirish, yetkazib berish, qadoqlash, yuklash, tushirish, ortish va boshqa jarayonlarni avtomatlashtirish;

mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, qoniqish darajasini oshirish.

Iste'molchilar uchun IoT texnologiyasi ham juda muhimdir. Shunday qilib, yuklarni kuzatishda dolzarb va to'g'ri ma'lumotlar iste'molchilarning xizmatga ishonchini hamda ularning qoniqishini oshiradi.

**Xulosa.** Hozirgi vaqtda IoT texnologiyasi orqali logistika xizmatlari ko'rsatish uchun qulay muhit paydo bo'lmoqda. Bu mobil ilovalar bozorining rivojlanishi, korporativ IT tizimida kompaniyalar tomonidan foydalanuvchi qurilmalaridan foydalanish, 5G tarmoqlarining paydo bo'lishi va ulardan foydalanish, katta ma'lumotlar bilan ishlash bilan bog'liq bo'lmoqda. Shuningdek, iste'molchilar innovatsion texnologiyalar va yondashuvlarni joriy etishni tobora ko'proq talab qilmoqdalar. Bu esa logistika kompaniyalarida Buyumlar Internetining tarqalishiga va faolroq joriy etilishiga yordam bermoqda.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "“O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sonli Farmoni
2. Интернет Вещей: куда идём и что это будет [Электронный ресурс]. –URL: <https://shalaginov.com/2018/07/08/4457/>(Дата обращения: 19.04.2020)
3. Kholmamatov Diyor Haqberdievich. Main Directions of Application Marketing Logistics. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 2021, 246-251 pp.
4. Kholmamatov Diyor Haqberdievich. Ways to use marketing logistics in Sales Organization. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2021, 176-182 pp.
5. Капорцева О.Н. Эффективность рынка логистических услуг в условиях цифровизации экономики. Бизнес. Образование. Экономика : Междунар. науч.-практ. конф., Минск, 1–2 апр. 2021 г. : сб. ст. / редкол.: В. В. Манкевич [и др.]. – Минск : Институт бизнеса БГУ, 2021. – С. 474-478.
6. Королёва А.А. Экономические эффекты цифровой логистики / А.А.Королёва // Журнал Бел.гос. ун-та. Экономика. – 2019. – № 1. – С. 68–76.
7. The Internet of Things (IoT) [Электронныйресурс]. – URL: <https://www.prnewswire.com/news-releases/theinternet-of-things-iot-market-is-expected-to-grow-from-usd-17057-billion-in-2017-to-usd-56104-billion-by-2022-ata-compound-annual-growth-rate-cagr-of-269-300585814.html> (Дата обращения: 19.04.2020)
8. Негреева В.В., Замятина А.А., Шпакович Д.К., Шаронова А.Д. **Использование цифровых технологий в логистике.** Научный журнал НИУ ИТМО. Серия Экономика и экологический менеджмент. 2020, №2 94-102 с.

9. Рожко О.Н. Трансформация национального рынка логистических услуг в условиях цифровой экономики / О. Н. Рожко, В. В. Хоменко // Проблемы современной экономики. – 2019. – № 3 (71). – С. 211–215.
10. Полухина А.А. Факторы повышения эффективности логистической деятельности предприятия. ЭКОНОМИНФО. 2018. Т.15. № 3 38-45 с.
11. [www.prnewswire.com](http://www.prnewswire.com)

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/2 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).